

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-01, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich

Sana: 15-09-2025 yil



YIG'MA EKSPERT XULOSASI

258200 - SONLI

Obyekt nomi: Бектемир тумани, Юқори Чирчиқ кўчаси, 72-уй манзилида жойлашган ўз худудидан чиқмаган ҳолда мавжуд биноларни реконструкция қилиш орқали ертўласи 2 қаватдан иборат автотураргоҳ, цоколнинг бир қисмида боғча, мактаб, савдо ва маиший хизмат кўрсатиш дўконлари, қолган қаватлари турар жой хонадонлари ва монсард қаватига эга бўлган кўп қаватли турар-жой биноси (қурилиш муддати 61 ой)

Buyurtmachi:	SHIRIN HAYOT RESIDENCE MCHJ
Bosh loyihachi:	"ARCHITECTURAL ERA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Buyurtmachi tomonidan aniqlanadi.
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	083948

1. Loyihalash uchun asos.

- 1.1. O'zbekistan Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 24.07.2024 - yildagi 1726-1726264-194036-sonli "Arxitektura rejalashtirish topshirig'i".
- 1.2. O'zbekistan Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining obyektini ixtisosini o'zgartirish va rekonstruktsiya qilishga 28.06.2024 yildagi №124540980-sonli ruxsatnoma.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2024-11-15 dagi 156839626-sonli xulosasi.
- 1.4. Buyurtmachi va loyihalash tashkiloti bilan 2025-yilda kelishilgan hamda tasdiqlangan loyihalash topshirig'i.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining Texnik kengashi yig'ilishining 07.07.2025 yildagi 30-2025-sonli Bayoni.
- 1.6. «GEOFACTS GROUP» MCHJ tomonidan 2025-yilda bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi xulosa.

- 1.7. Buyurtmachining loyiha tashkiloti bilan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun 22.07.2025-yildagi №18-sonli shartnomasi.
- 1.8. Ko'chmas mulk obyektiga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida 26.03.2025 yildagi №:R-BKMT34901721-sonli Davlat Reyestridan Ko'chirma.
- 1.9. «Hududiy elektr tarmoqlari» AJ «Toshkent shahar elektr tarmoqlari» MChJ elektr tarmoqlariga ulanish uchun 17.06.2025 yildagi 2626459549 sonli texnik shart.
- 1.10. "Toshkent shahar suv ta'minoti" AJ tomonidan 06.05.2025 yilda berilgan №270/4-1319 sonli texnik shart.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

- 2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra ishchi loyihaning elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.
- 2.2. "ARCHITECTURAL ERA" MCHJ tomonidan 2025-yilda bajarilgan obyektning issiqlik-texnik hisoboti.
- 2.3. "ARCHITECTURAL ERA" MCHJ tomonidan 2025-yilda bajarilgan obyektning energetik passporti.
- 2.4. "ARCHITECTURAL ERA" MChJ tomonidan Binoning konstruktiv xisobi bo'yicha 2025 yildagi texnik xulosasi.
- 2.5. Loyiha qurulish montaj ishlari ilova qilingan POS grafiklari asosida 61 oy etib belgilangan.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonchasining ma'lumotlari.

Havoning qishki maksimal harorati - -14°C .;

Normativ shamol bosimi - $W_o = 0,38 \text{ kPa}$.

Normativ qor qatlami vazni - $S_n = 0,50 \text{ kPa}$.

Qurilish hududining zilzilabardoshligi - 8 ball.

Tuproq-gruntlarning muzlash chuqurligi - 0.48 m.

Cho'kish bo'yicha hududning tuproq sharoitlari turi - I (birinchi).

Yer osti suvlari yer sathidan - 5,3-6,9m. chuqurlikda;

3.2. Bosh reja va Arxitektura rejalashtirish yechimlari.

Toshkent shahar Bektemir tumani, Yuqori Chirchik kuchasi, 72- uy manzilida joylashgan 35061,0kv.m. (3,5061ga.) yer maydonida o'z xududidan chiqmagan xolda mavjud binolarni rekonstruksiya qilish orqali yertulasi ikki qavatdan iborat avtoturargox, sokolning bir qismida bog'cha, maktab, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish do'konlari, qolgan qavatlari turar joy xonadonlari va monsard qavatiga ega bo'lgan ko'p qavatli turar-joy binosi loyihalashtirilgan.

Loyihada, tanlangan yer maydonida mavjud bino va inshootlar buzilib, ularning o'rnida 6 turdagi 21 blokdan iborat 16-qavatli ustida mansarda qavat, yerto'la qismida ikki qavatli avtoturargohi bo'lgan, pastki qavatlarida savdo-maishiy ob'ektlari bo'lgan 1 seksiyali, 1 yo'lakli turar joy majmuasi binolari qurilishi rejalashtirilgan.

Loyihalashtirilayotgan xudud atrofida quyidagilar bilan chegaralangan:

- shimoldan - sanoat korxonalar hududi;
- janubdan - sanoat korxonalar hududi;
- sharqdan - sanoat korxonalar hududida;
- g'arbdan - "Yuqori Chirchiq" ko'chasi.

Bosh reja bo'yicha quyidagi bino va inshootlar loyihalashtirilgan:

- sokol qavatida bog'cha bo'lgan kup qavatli turar-joy binolari (Blok 18;20);
- Ko'p qavatli turar-joy binolari (Blok 1;2;3;4;5;6;7;8;9;10;11;12;13;14;15;16);
- sokol qavatida maktab bo'lgan kup qavatli turar-joy binolari (Blok 17;19;21);
- KPP;
- Bolalar uyini maydonchasi;
- "Workout" maydonlari va kukalamzorlashtirish;
- Avtoturargox;

- Besedka;
- Pojarniy gidrant;
- Transformator podstantsiyasi.
- Minifutbol maydoni.
- Kozonxona.
- Yerosti axlat tashlash qutisi

Bosh reja hudud balans:

Umumiy maydon - 3, 5061ga;
 Qurilish maydoni - 1,09ga;
 Yo'l yuzasi - 2,009ga;
 Ko'kalamzorlashtirish maydoni - 0,4ga.

3.3. Arxitektura - qurilish qismi.

Yer ostidagi ikki qavatli "Avtoturargoh" - o'q bo'icha 328,9x88,09m. o'lchamdagi to'g'ri to'rtubchak shaklda. Qavatlarda xonalarning poldan shiftgacha balandligi yerto'la qismidagi birinchi qavat h=3,30m., ikkinchi qavat h=3,30m.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar:

Umumiy maydon - 29667,6m²;
 Qurilish maydoni - 14212,2m²;
 Qurilish hajmi, 0,000dan pastki qismi -93799,2m³.

Ko'p qavatli 1-tipdagi turar-joy majmuasi (Blok 1,8,9) - o'q bo'icha 32,3x15,0m. o'lchamdagi to'g'ri to'rtubchak shaklda, o'n olti qavat mansardli, tsokol va yerto'la qismi ikki qavat. Binoning umumiy balandligi h=60,07m. yer satxidan. Qavatlarda xonalarning poldan shiftgacha balandligi yerto'la qismidagi birinchi qavat h=3,30m., ikkinchi qavat h= 4,30m., sokol qavatida h=4,0m., yashash qismida h=2,90m.

Yerto'la qismida lift shaxtasi (2 dona), zina, yo'lak va avtoturargoh joylashtirilgan. Sokol qavatida jamoat maydoni (savdo maydonchasi), lift shaxtasi (2 dona), zina, yo'lak va elektr yashigi.

Birinchi qavatdan to o'n olti qavat va mansard qavatda daxliz, turar-joy xonadonlari kiraverish, yashash xonasi, yotoq xona, bolalar xonasi, oshxona, balkon, yuvinish va xojat xonasi, zina va lift shaxtasi (2 dona) loyixalashtirilgan.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar:

Umumiy maydon - 9756,3m²;
 Qurilish maydoni - 493,4m²;
 Qurilish hajmi, 0,000dan yuqori qismi - 26550,9m³;
 0,000dan pastki qismi - 6216,8m³
 Binoning qavatlari - 16 + mansard qavat.

Xonadonlar soni: Jami:144 ta.

shulardan - 1 xonali xonadon- 105ta, 2 xonali xonadon- 30ta, ikkiyarusli 3 xonali xonadon- 9ta.

Ko'p qavatli 2-tipdagi turar-joy majmuasi (Blok 2,6) - o'q bo'icha 32,3x15,0m. o'lchamdagi to'g'ri to'rtubchak shaklda, o'n olti qavat mansardli, tsokol va yerto'la qismi ikki qavat. Binoning umumiy balandligi h=60,07m. yer satxidan. Qavatlarda xonalarning poldan shiftgacha balandligi yerto'la qismidagi birinchi qavat h=3,30m., ikkinchiqavat h=4,30m., sokol qavatida h=4,0m., yashash qismida h=2,90 m.

Yerto'la qismida lift shaxtasi (2 dona), zina, yo'lak va avtoturargoh joylashtirilgan. Sokol qavatida jamoat maydoni (savdo maydonchasi), lift shaxtasi (2 dona), zina, yo'lak va elektr yashigi.

Birinchi qavatdan to o'n olti qavat va mansard qavatda daxliz, turar-joy xonadonlari kiraverish, yashash xonasi, yotoq xona, bolalar xonasi, oshxona, balkon, yuvinish va xojat xonasi, zina va lift shaxtasi (2 dona) loyixalashtirilgan.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar:

Umumiy maydon - 8852,4m²;

Qurilish maydoni - 546,6m²;

Qurilish hajmi, 0,000dan yuqori qismi - 31589,91m³;

0,000dan pastki qismi - 6058,1m³

Xonadonlar soni: Jami: 128 ta.

shulardan - 1 xonali xonadon- 90ta, 2 xonali xonadon- 30ta, ikkiyarusli 3 xonali xonadon- 6ta, ikkiyarusli 5 xonali xonadon- 2ta.

Ko'p qavatli 3-tipdagi turar-joy majmuasi (Blok 3,5) - o'q bo'icha 27,0x15,0m. o'lchamdagi to'g'ri to'rtubchak shaklda, o'n olti qavat mansardli, tsokol va yerto'la qismi ikki qavat. Binoning umumiy balandligi h=60,07m. yer satxidan. Qavatlarda xonalarning poldan shiftgacha balandligi yerto'la qismidagi birinchi qavat h=3,30m., ikkinchiqavat h=4,30m., sokol qavatida h=4,0m., yashash qismida h=2,90m.

Yerto'la qismida lift shaxtasi (2dona), zina, yo'lak va avtoturargoh joylashtirilgan. Sokol qavatida jamoat maydoni (savdo maydonchasi), lift shaxtasi (2dona), zina, yo'lak va elektr yashigi.

Birinchi qavatdan to o'n olti qavat va mansard qavatda daxliz, turar-joy xonadonlari kiraverish, yashash xonasi, yotoq xona, bolalar xonasi, oshxona, balkon, yuvinish va xojat xonasi, zina va lift shaxtasi (2dona) loyixalashtirilgan.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar:

Umumiy maydon - 8165,9m²;

Qurilish maydoni - 421,5m²;

Qurilish hajmi, 0,000 dan yuqori qismi - 22550,0m³;

0,000 dan pastki qismi - 5310,0 m³.

Xonadonlar soni: Jami: 126 ta.

shulardan - 1 xonali xonadon- 60ta, 2 xonali xonadon- 15ta, studiya 1 xonali xonadon- 30ta, studiya 2 xonali xonadon- 15ta, ikkiyarusli 3 xonali xonadon- 4ta, ikkiyarusli 5 xonali xonadon- 2ta

Ko'p qavatli 4-tipdagi turar-joy majmuasi (Blok 4) - o'q bo'icha 40,0x15,0m. o'lchamdagi to'g'ri to'rtubchak shaklda, o'n olti qavat mansardli, tsokol va yerto'la qismi ikki qavat. Binoning umumiy balandligi h=60,07m. yer satxidan. Qavatlarda xonalarning poldan shiftgacha balandligi yerto'la qismidagi birinchi qavat h=3,30m., ikkinchiqavat h=4,30m., sokol qavatida h=4,0m., yashash qismida h=2,90m.

Yerto'la qismida lift shaxtasi, zina, yo'lak va avtoturargoh joylashtirilgan.

Sokol qavatida jamoat maydoni (savdo maydonchasi), lift shaxtasi, zina, yo'lak va elektr yashigi.

Birinchi qavatdan to o'n olti qavat va mansard qavatda daxliz, turar-joy xonadonlari kiraverish, yashash xonasi, yotoq xona, bolalar xonasi, oshxona, balkon, yuvinish va xojat xonasi, zina va lift shaxtasi (2 dona) loyixalashtirilgan.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar:

Umumiy maydon - 11373,2m²;

Qurilish maydoni - 690,1m²;

Qurilish hajmi, 0,000dan yuqori qismi - 40053,7m³;

0,000dan pastki qismi – 7490,7m³

Xonadonlar soni: Jami: 176 ta.

shulardan - 1 xonali xonadon- 135ta, 2 xonali xonadon- 30ta, ikkiyarusli 3 xonali xonadon- 9ta, ikkiyarusli 5 xonali xonadon- 2ta

Ko'p qavatli 5-tipdagi turar-joy majmuasi (Blok 10,11,12,13,14,15,16,17,18,19) - o'q bo'icha 32,3x15,0m. o'lchamdagi to'g'ri to'rtubchak shaklda, o'n olti qavat mansardli, tsokol va yerto'la qismi ikki qavat. Binoning umumiy balandligi h=60,07m. yer satxidan. Qavatlarda xonalarning poldan shiftgacha balandligi yerto'la qismidagi birinchi qavat h=3,30m., ikkinchiqavat h=4,30m., sokol qavatida h=4,0m., yashash qismida h=2,90m.

Yerto'la qismida lift shaxtasi, zina, yo'lak va avtoturargoh joylashtirilgan.

Sokol qavatida jamoat maydoni (savdo maydonchasi), lift shaxtasi, zina, yo'lak va elektr yashigi.

Birinchi qavatdan to o'n olti qavat va mansard qavatda daxliz, turar-joy xonadonlari kiraverish, yashash xonasi, yotoq xona, bolalar xonasi, oshxona, balkon, yuvinish va xojat xonasi, zina va lift shaxtasi (2 dona) loyixalashtirilgan.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar:

Umumiy maydon – 8852,4m²;

Qurilish maydoni – 546,6m²;

Qurilish hajmi, 0,000dan yuqori qismi – 31589,9m³;

0,000dan pastki qismi – 6058,1m³.

Xonadonlar soni: Jami: 128 ta.

shulardan - 1 xonali xonadon- 90ta, 2 xonali xonadon- 30ta, ikkiyarusli 3 xonali xonadon- 6ta, ikkiyarusli 5 xonali xonadon- 2ta.

Ko'p qavatli 6-tipdagi turar-joy majmuasi (Blok 7,20,21) - o'q bo'icha 32,3x15,0m. o'lchamdagi to'g'ri to'rtubchak shaklda, o'n olti qavat mansardli, tsokol va yerto'la qismi ikki qavat. Binoning umumiy balandligi h=60,07m. yer satxidan. Qavatlarda xonalarning poldan shiftgacha balandligi yerto'la qismidagi birinchi qavat h=3,30m., ikkinchiqavat h=4,30m., sokol qavatida h=4,0m., yashash qismida h=2,90m.

Yerto'la qismida lift shaxtasi, zina, yo'lak va avtoturargoh joylashtirilgan.

Sokol qavatida jamoat maydoni (savdo maydonchasi), lift shaxtasi, zina, yo'lak va elektr yashigi.

Birinchi qavatdan to o'n olti qavat va mansard qavatda daxliz, turar-joy xonadonlari kiraverish, yashash xonasi, yotoq xona, bolalar xonasi, oshxona, balkon, yuvinish va xojat xonasi, zina va lift shaxtasi (2 dona) loyixalashtirilgan.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar:

Umumiy maydon – 9756,3m²;

Qurilish maydoni – 493,4m²;

Qurilish hajmi, 0,000dan yuqori qismi – 26550,9m³;

0,000dan pastki qismi – 6216,8m³.

Xonadonlar soni: Jami: 128 ta.

shulardan - 1 xonali xonadon- 60ta, 2 xonali xonadon- 60ta, ikkiyarusli 3 xonali xonadon- 4ta, ikkiyarusli 4 xonali xonadon- 4ta

Tashqi pardoqlash:

Poypesh – keramik plita;

Devor – travertin suvoq, dekorativ fasad va 2 qatlamli rang;

Balkon qoplama – yaxshilangan suvoq, travertin va 2 qatlamli rang;

Binoga kirish qismida - zina mavjud (ustki qoplamasi granit).

Ichki pardoqlash:

Zina qoplama - keramogranit qoplama;

Devor - yaxshilangan suvoq, suv-disperlangan akril bo'yoq;

Shift - osma shift, gipsokarton va akril, suvdisperlangan bo'yoq;

Pol - keramik plita va beton;

Eshik - alyumin va metal profil;

Rom - polivinilxloriddan tayyorlangan profil;

Xarid qilingan xonadonlar va binoning tsokol qismida ichki pardoqlash ishlari sotib oluvchilarning o'z xisoblaridan amalga oshiriladi.

3.4. Konstruktiv yechimlari.

Loyihalalanayotgan binolar 16 (o'n oltti) qavatli + mansard, tsokol va ikki qavatli yerto'la qismiga ega.

Poydevori - quyma, temirbetonli, yaxlit plitasimon, qalinligi 1800mm, beton sinfi V25. Yerto'la devorlari - quyma, temirbetonli, beton sinfi V25.

Ustunlari - quyma, temirbetonli, o'lchamlari 600x600, 500x500, 400x400mm bo'lib, V25ni tashkil etadi.

Rigellar - quyma, temirbetonli bo'lib, o'lchamlari turlicha va beton sinfi V25 ni tashkil etadi.

Diafragmalar - quyma, temirbetonli bo'lib, beton sinfi V25ni tashkil etadi.

Orayopmalar - quyma, temirbetonli, qalinligi 250, 180, 160mm bo'lib, beton sinfi V25 ni tashkil etadi.

Devorlar (tashqi) - devor qalinligi 300mm bo'lib, gazobloklardan iborat.

Pardevorlar (ichki) - devor qalinligi 200, 120mm bo'lib, gazobloklardan iborat.

Zinalari - quyma, temirbetonli bo'lib, beton sinfi V20 ni tashkil etadi.

Tom yopmasi - ferma shaklda yopilgan bo'lib, temir profillardan tashkil topgan.

Majmua qurilishi 7-bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich Blok-1, 2, 3.

2-bosqich Blok-4, 5.

3-bosqich Blok-6, 7, bloklar orasidagi ikki qavatli avtoturargoh.

4-bosqich Blok-8, 9, 10, 11.

5-bosqich Blok-12, 13, 14, 15.

6-bosqich Blok-16, 17, 18, 19.

7-bosqich Blok-20, 21, bloklar orasidagi ikki qavatli avtoturargoh.

3.5. Yong'in xavfsizligi.

Binoning yong'iniga chidamlilik darajasi - II

Funktsional yong'in xavfliligi bo'yicha klassi - F1.3, F5.2

Konstruktiv yong'in xavflilik klassi - C0

Loyihada qo'riqlash va yong'in xavfida xabar berish tizimi ko'zda tutilgan. Yong'inni o'chirish yong'in gidrantlaridan amalga oshiriladi. Bino atrofida o't o'chirish mashinalari uchun yo'laklar mavjud.

3.6. Energiya samaradorligi.

Energiya samaradorlikni ta'minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

-SHNK 1.03.01 p5. talablariga muvofiq binoning energiya pasportini o'z ichiga olgan "energiya samaradorligi" yechimi, 10.5-bandning 2.03.10-2019-bandiga muvofiq ishlab chiqilgan.

- SHNK 1.03.01 va 2.03.10-2019 muvofiq ilova 10.5 talablariga muvofiq binoning energiya pasporti taqdim qilingan.

- KMK 2.01.04 2018 Issiqlik muhandislik hisobi himoya darajasi ishlab chiqilgan.

- Loyihaga ko'ra bino tom qismida 550 Vt lik 1034 dona, jami quvvati 568.7 kVt quyosh panellari o'rnatilishi rejalashtirilgan.
- yoritish svetodiodli chiroqlar orqali bajarilgan va turar joy binosining ishchi yoritish jixozlari QMQ 2.01.05-19 4.27 bandi ko'rsatilgan talablar (harakatni va yorug'likni sezuvchi qurilmali yoritgichlarni qo'llash zarur) asosida bajarilgan.

3.7. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulaylik yaratish.

Ishchi loyihada ShNQ 2.07.02-24 «Qurilish ob'ektlarini nogironligi bo'lgan va hayot faoliyati cheklangan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish» shaharsozlik normalari va qoidalariga asosan shart-sharoitlar ko'zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

- Bino tashqi muhandislik tizimlaridan tashqari barcha ichki muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish tizimi, shamollatish, ichki elektr ta'minoti, aloqa va signalizatsiya, videokuzatuv, suv ta'minoti va kanalizatsiya, xavfsizlik, yong'in signalizatsiyasi va boshqa tizimlar shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART va loyihalashtirish topshirig'iga muvofiq).
- Barcha bloklarning isitish tizimi (kotelney) ob'ektning hududida joylashgan.
- Ob'ektni tashqi muhandislik tarmoqlari ekspertiza tomonidan ko'rilmadi, kelajakda tashqi muhandislik tarmoqlari ishlab chiqilishi va o'rnatilgan tartibda ekspertizadan o'tkazilishi lozim.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- 5.1. Dastlabki loyiha yechimlari loyihachi bilan kelishilgan hamda buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan.
- 5.2. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2024-11-15 dagi 156839626-sonli xulosasi.
- 5.3. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, Atrof-muhitni muhofaza qilish va Iqlim o'zgarishi vazirligi Davlat Ekologik Ekspertizasi markazi Toshkent shahar filialining 16.04.2025 yildagi №01-02/14-5429 sonli Davlat Ekologik ekspertizasi xulosasi.
- 5.4. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining Texnik kengashi yig'ilishining 07.07.2025 yildagi 30-2025-sonli Bayoni.
- 5.5. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi M.T.O'rozboev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutining 17.07.2025 yildagi №1-sonli ilmiy xulosasi va 17.07.2025 yildagi №871-3 sonli xati.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan **817 636 883 458** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

25 453 519 886 so'mga oshirilib, **843 090 403 344** so'mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **698 311 521 661** so'm

Asbob-uskunalar: **54 447 767 039** so'm

QQS: **90 331 114 644** so'm

Ob'ekt qiymati oshishi quyidagi aniqlashtirish natijasida yuzaga kelgan, jumladan: qozonxona smetasi qushildi, ish xajmlarini ko'rib chiqish, resurs va normalarni aniqlashtirish, pudratchining boshqa xarajatlari, qurilish materiallari, mashina mexanizimlar va boshqa xarajatlari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, texnologik, muhandislik tarmoqlari, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari bo'yicha izohlarisiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

- binoning konstruktiv qismi bo'yicha barcha kamchiliklar aniqlashtirildi va bartaraf etildi;
- isitish, shamollatish va suv ta'minoti bo'yicha keltirilgan kamchiliklar bartaraf etildi.

6.3. Shartnoma bo'yicha import materiallar va asbob-uskunalarni sotib olish (oborudovanie), hamda etkazib berish xarajatlari va u bilan bog'liq xarajatlar shaharsozlik hujjatlari ekspertizasidan o'tkazilmaydi.

6.4. Smeta hujjatlarida ko'rsatilgan pudratchining boshqa harajatlari miqdori bo'yicha "Shaharsozlik hujjatlari ekspertiza qilish Respublika markazi" DM majburiyatni o'z zimmasiga olmaydi.

6.5. Buyurtmachiga qayta ko'rib chiqish tavsiya etiladi:

- ShNK 4.01.16-09 6-bobidagi "Qurilishning bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidolari" asosida asbob-uskunalar va qurilish materiallari (buyumlar, konstruksiyalar) birja va yarmarkalarining byulletenlari, qurilish materiallari va uskunolari yetkazib beruvchi tashkilotlarning narxlaridan olinishi, pudratchining boshqa xarajatlari va ishchilarning ish xaqi bo'yicha aniqlik kiritishlashini.

6.6. Yakuniy qurilish qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqatda (po faktu) bajarilgan ishlar va nazorat o'lchovlari natijalari asosida aniqlanadi.

6.7. Buyurtmachi ishchi loyihani tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli tashkilotlar bilan kelishishi lozim.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida "Mualliflik nazorati"ni amalga oshirilishini ta'minlaydi.

6.8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579-sonli qarorining III bob 29-bandida ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgarligi belgilangan.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda, barcha me'yor talablarning bajarilishi va buyurtmachi tomonidan ob'ektning asbob-uskunalar va qurilish materiallar narxlari, mashina-mexanizimlarni ishlash qiymati va ishlar xajmini maqullanishi sharti bilan «Bektemir tumani, Yuqori Chirchiq ko'chasi, 72-uy manzilida joylashgan o'z hududidan chiqmagan holda mavjud binolarni rekonstruksiya qilish orqali yerto'lası 2 qavatdan iborat avtoturargoh, sokolning bir qismida bog'cha, maktab, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish do'konlari, qolgan qavatlari turar joy xonadonlari va monsard qavatiga ega bo'lgan ko'p qavatli turar-joy binosi (qurilish muddati 61 oy)» ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko'rib chiqib, kelishishga tavsiya etiladi.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori va ShNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini o'tkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

Bosh ekspert: Xudayberdiyev Shokir Abdiraxmanovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Zairov Nig'matjon Qobilovich, Raimov Murod Ummat O'g'li, Abduraxmanov Muzaffar Yulchiyevich, Ikromov Muxiddin Sodiqovich, Mirzayev Nodirbek Xalilovich, Usmanov Kayrat Sharipbayevich, Xatamov Nurbek Choriyevich, Shukurov Rustam Sunnatovich